IX. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 6283 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etilib, (2020- yilning shu davriga nisbatan 0,9 %ga ko‘paygan), ularning soni 50875 taga yetdi.

2021- yil 1- oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 45153 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga qaraganda 11,8 %ga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 5186 tasi (11,5 %) Zangiota, 4188 tasi (9,3 %) Qibray, 3303 tasi (7,3 %) Toshkent, 2479 tasi (5,5 %) O‘rta Chirchiq tumanlari, 2472 tasi (5,5 %) Angren, 2453 tasi (5,4 %) Yangiyo‘l hamda 2442 tasi (5,4 %) Chirchiq shaharlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng katta ulush

- Zangiota tumanida 11,5%
- Qibray tumanida 9,3%
- Toshkent tumanida 7,3%
- O‘rta Chirchiq tumanida 5,5%
- Angren shahrida 5,5%
- Yangiyo‘l tumanida 5,4%
- Chirchiq shahrida 5,4%

Eng kichik ulush

- Ohangaron shahrida 2,4%
- Ohangaron tumanida 2,6%
- Piskent tumanida 2,6%
- Bo‘ka tumanida 2,7%
- Oqqo‘rg‘on tumanida 2,8%
- Nurafshon shahrida 2,8%
- Bekobod tumanida 2,8%

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, *%da*



2021- yil 1- oktyabr holatiga viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 6283 tani tashkil qilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 42 taga yoki 0,9 %ga ko‘paygan.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida o‘sish dinamikasi, *1- oktyabr holatiga %da*



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2021- yil yanvar-sentyabr holatiga (jamiga nisbatan %da)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,6 %), sanoatda (20,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (12,6 %) hamda qurilishda (7,1 %) tashkil etilgan.

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 47,8 %i (2020- yil yanvar-sentyabrda 48,9 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 9505,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,4 %) yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 99,1 % tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 16985,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur’ati 102,4 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 92,4 %) tashkil qildi;

- 7678,3 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 44,7 %) o‘zlashtirildi va 2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 123,1 % tashkil qildi;

- 4892,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 78,2 %) bajarildi va 2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 121,3 % ko‘paydi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,7 % (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 53,0 %), yo‘lovchi aylanmasining esa 102,5 % (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,7 %) ko‘payishi ta’minlandi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 79,0 % yoki 13972,9 mlrd. so‘m (o‘sish 18,3 %) va xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 71,6 % yoki 10 753,4 mlrd. so‘mi (o‘sish 117,2 %) shakllantirildi;

- 307,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 21,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 906,1 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 37,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)